

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2023
5-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

Muassislar:

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi*

Manzil: 100095, Toshkent sh.
2-Chimboy ko'chasi, 96-uy.

Telefon: (71) 207-03-41

e-mail: rmxat@edu.uz

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal har ikki oyda o'zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.

“Ta'lim, fan va innovatsiya”
jurnali O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2015-yil 18-noyabrda
218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 –
PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha,
2018-yil 28-noyabrda 247/6-sonli
qarori bilan 23.00.00 – SIYOSIY
FANLAR bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ta'lim, fan va innovatsiya”
jurnalidan ko'chirib bosish faqat
tahririyatning roziligi bilan amalga
oshiriladi. Maqolada keltirilgan
faktlarning to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir. Tahririyat fikri mualliflar
fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to'liq matnini esijournal.uz rasmiy
saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlaringizni
[@esijournalbot](https://t.me/esijournalbot) telegram botiga yuboring.*

Sardor Eshbekov.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vatan oldidagi burchimizdir..... 58

Aliya Narshabayeva.

Bilingvistik yondashuv asosida talabalarda tolerantlikni rivojlantirish texnologiyasi 61

Shoxrux Mirzayev.

O'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash va ijro intizomi samaradorligini oshirish uchun
rejalashtirilgan amaliy ishlar..... 65

Nasiba Nasriddinova.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish mazmuni..... 68

Идрис Алкаров.

Талабаларни ижтимоий фаол шахс қилиб шакллантириш тамойиллари 71

Gulhayo G'aniyeva.

3-sinf o'quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik 75

Otabek Turdiyev.

Maktabgacha bo'lgan musiqiy tarbiya..... 78

Антонина Кошелева.

Современные тенденции системы высшего образования в подготовке специалистов
сферы искусства и культуры..... 81

Alisher Sabriyev.

G'azal lingvopoetik tahlilida leksik-semantik xususiyatlar 84

Aziza To'rabekova.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani bolalar adabiyoti orqali
shakllantiruvchi metodlar..... 90

Matluba Temirova.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning estetik tarbiyasini
takomillashtirish texnologiyasi 94

Maxmud Mamarasulov.

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarishning nazariy
asoslari 97

Sanobar Xurramova.

Talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning
nazariy asoslari..... 101

Анора Камиллов.

Организация и нормирование труда на производстве 104

Муслимбек Яхшиев.

Янги Ўзбекистон экологик сиёсатининг замонавий тенденциялари 106

Xurshida Nuritdinova.

Talabalarda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari 113

Bekmurod Abdunabiyev.

Professional ta'lim muassasalarini metodik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarurati 117

Guzal Khujaniyazova.

Characteristics of the teacher's innovative competence in terms of content and structure 120

Ixtiyor Isabekov.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishga innovatsion yondashuvlar..... 122

Нигора Курбанова.

Современные тенденции в музыкальной педагогике в высших учебных заведениях 125

Faqat nutqingizni va xabar mazmunini nazorat qilishning o'zi yetarli emas. Shuningdek, uning tashqi "jo'rliqi" — yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiyaga taalluqli bo'lgan qismida uning shaklini nazorat qilish kerak.

"O'z xatosi" qoidasi. Muloqot paytida shaxsiy nuqtayi nazar noto'g'ri bo'lishi mumkinligini tan olish kerak. Bu ko'pincha jiddiy xatolardan ogohlantiradi.

Joy va vaqt qoidasi. Har qanday xabarning samaradorligi, agar u o'z vaqtida bo'lsa va u amalga oshiriladigan eng mos vaziyatni tanlansa, keskin ortadi.

Ochiqlik qoidasi yangi ochilgan holatlar ta'sirida o'z nuqtayi nazarini qayta ko'rib chiqishga tayyorlikni, shuningdek, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish qobiliyatini anglatadi.

Faol va konstruktiv tinglash qoidasi samarali muloqot-

ning asosiy shartlaridan biridir.

Fikr bildirish qoidasi. Aynan shu qoida pirovardida kommunikativ jarayonning asosiy maqsadi — o'zaro tushunishga erishishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, muloqot subyekting tanloviga qanday bo'lishidan qat'i nazar, hodisa sifatida — muloqot, birinchi navbatda, o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hisoblanadi, chunki uning maqsadlari va funksiyalari ijtimoiy hisoblanadi — u odamlarni kuzatishga, ularning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishga va o'zaro tushunish va faoliyatning umumiy natijalariga erishishga yo'naltirilgan, shuningdek, u shaxsning madaniyatga kirishining, ijtimoiylashuvining, ularning psixik va ijtimoiy shakllanishining eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni / <https://lex.uz/docs/5841063>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5847-son. Farmoni / <https://lex.uz/ru/docs/4545884>

Nuritdinova X. "Kommunikativ kompetentlikning mulqot muammolari sapektidagi mohiyat tavsifi" – Toshkent davlat Pedagogika universiteti ilmiy axborotlar jurnali, 2022. – 11-son. – 339-403-b.

Nuritdinova X. "Bo'lajak mutahassislarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning mazmun mohiyati". – Toshkent davlat Pedagogika universiteti ilmiy axborotlar jurnali, 2023. – 5-son. 15-19-b.

O.U.Hasanboyeva, M.X.Tojiyeva, Sh.K.Toshpo'latova, M.M.Pirmuhamedova, R.T.Akbarova, M.Sh.Nurmatova, N.M.Qayumova, N.N.Jamilova, X.Sariboyev, L.A.Kulay "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". – T.: "ILM ZIYO", 2011. – 184 b.



PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINI METODIK VA ILMYI JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH ZARURATI

Bekmurod Abdunabiyev,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalari va professional ta'lim muassasalari o'zaro hamkorligining ahamiyati, professional ta'lim muassasalarini ilmiy hamda metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash, professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarini xorijiy til savodxonligini oshirish va mutaxassislik fanlarini dasturlarini xorijiy tilda yaratish va dars mashg'ulotlarini xorijiy tillarda tashkil etish shartlari haqida fikrlar yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalariga birlashtirilgan professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish, o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, hamkorlik seminarlari, kutubxona faoliyatidan samarali foydalanish, professional ta'lim muassasalari xodimlarini ilmiy faoliyatga yo'naltirishda qo'llab-quvvatlash, ish beruvchilar bilan munosabatlarda o'rta ta'lim ishtirokini yaxshilash borasida qilinadigan ishlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy kompetentlik, metodik yordam, ilmiy faoliyat, o'quv dasturlar, ta'lim hamkorligi, ilmiy-metodik ta'minot, kasbiy mahorat, "pedagogik ta'lim klasteri" tizimi, ish beruvchilar hamkorligi, kutubxona faoliyati, metodik seminar.

Аннотация

В данной статье рассматривается важность взаимного сотрудничества высших учебных заведений и профессиональных образовательных учреждений, научно-методического обеспечения профессиональных образовательных учреждений, повышения иноязычной грамотности преподавателей профессиональных

образовательных учреждений, а также программ профильных предметов. Мнения об условиях создания на иностранном языке и организации уроков на иностранных языках. Совершенствование деятельности профессиональных образовательных учреждений и академических лицеев при высших учебных заведениях, укрепление взаимного сотрудничества, проведение семинаров по сотрудничеству, эффективное использование библиотечной деятельности, поддержка в направлении работников профессиональных образовательных учреждений к научной деятельности, работодателей. Работа по повышению участия в среднем образовании.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, методическое обеспечение, научная деятельность, образовательные программы, образовательное сотрудничество, научно-методическое обеспечение, профессиональные навыки, система “кластер педагогического образования”, сотрудничество работодателей, библиотечная деятельность, методический семинар.

Annotation

This article discusses the importance of mutual cooperation between higher educational institutions and professional educational institutions, scientific and methodical support of professional educational institutions, improvement of foreign language literacy of teachers of professional educational institutions, and programs of specialized subjects. opinions about the conditions of creation in a foreign language and the organization of lessons in foreign languages are highlighted. Improving the activities of professional educational institutions and academic lyceums attached to higher education institutions, strengthening mutual cooperation, cooperation seminars, effective use of library activities, support in directing employees of professional educational institutions to scientific activities, employers The work to improve participation in secondary education in relations with

Keywords: competence, professional competence, methodical support, scientific activity, educational programs, educational cooperation, scientific-methodical support, professional skills, “pedagogic education cluster” system, employer cooperation, library activity, methodical seminar.

Respublikamizda jismoniy madaniyat sohasida zamonaviy mutaxassislar tayyorlash tizimi mukammal darajada tashkil etilgan. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi faoliyatini samarali tashkil etishda ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish hamda mavjud muammolarni o'z vaqtida hal etish talab etilmoqda [1, 4-5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021-yil 31-avgustdagi PQ-5241-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 6-martdagi “Professional ta'lim muassasalarini metodik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi 44-sonli buyrug'i-ga asosan oliy ta'lim muassasalari va professional ta'lim muassasalarining hamkorlik faoliyatini tubdan yaxshilash, oliy ta'lim muassasalarining biriktirilgan professional ta'lim muassasalari va akademik litseylari ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada rivojlantirish, ularga metodik va ilmiy jihatdan yordam berish, o'quv hujjatlari: o'quv reja, fan dasturlari, ishchi dasturlar, darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va yaratishda metodik va ilmiy jihatdan ko'maklashish, professional ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini va darslarini xorijiy tilda amalga oshirish uchun ularning xorijiy til savodxonligini oshirish va me'yoriy hujjatlarni xorijiy tillarda yaratish hamda o'quv darslarini xorijiy tillarda tashkil etishga ko'maklashish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib turibdi [1,4; 2,7].

U.K.Tolipov o'z tadqiqotlarida “pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish ularda o'z faoliyatiga qiziqish hamda uning samaradorligini oshirishga intilishining

shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi” [8, 16].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-avgustdagi “Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5241-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirining 2023-yil 6-martdagi “Professional ta'lim muassasalarini metodik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi 44-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2023-yil 16-mart sanasidagi 01-55-sonli buyrug'i tasdiqlandi va universitetning professor-o'qituvchilari va doktorantlari tomonidan professional ta'lim muassasalariga metodik va ilmiy jihatdan yordam ko'rsatish chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi. Bu chora-tadbirlar rejasida professor-o'qituvchilar va doktorantlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar bayon etilgan.

Bunda professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etishni qo'llab-quvvatlash maqsadida:

- professor-o'qituvchilar va doktorantlar ro'yxatini shakllantirish;
- biriktirilgan professor-o'qituvchilar va doktorantlarga ularning vazifalarini tushuntirishni tashkil etuvchi bir haftalik o'quv-seminar kursini tashkil etish;
- boshqa hududlarga biriktirilgan professor-o'qituvchilariga universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda xizmat safari xarajatlarini qoplanishini ta'minlash;
- professional ta'lim muassasalariga biriktirilgan professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamalarini 2023/2024-o'quv yilidan boshlab 15% ga qisqartirish;
- biriktirilgan professional ta'lim muassasalarida meto-

dik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etgan professor-o'qituvchilarni universitetning byudjetidan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantirish choralarini ko'rish;

- har chorak yakunida universitet tomonidan professional ta'lim muassasalariga metodik va ilmiy jihatdan yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida vazirlikning Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamentiga axborot kiritib borish vazifalari yuklatildi.

Professor-o'qituvchilar va doktorantlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar quyidagilar sifatida belgilandi:

1. Professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar:

- biriktirilgan professional ta'lim muassasasi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish, pedagogik jamoasi bilan tanishish, o'quv-me'yoriy hujjatlar va moddiy texnika bazasini o'rganish;

- yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda, pedagogik kadrlar uchun o'quv seminarlar va mahorat darslarini tashkil etish;

- o'qituvchilarga dars jarayonlarini tashkil etishning eng samarali yo'llari va metodlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish;

- pedagogik xodimlarning darslarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklari bo'yicha ularga uslubiy ko'rsatmalar berish;

- o'quv mashg'ulotlarini samarali va mazmunli tashkil etish bo'yicha uslubiy ishlanmalar tayyorlashga ko'maklashish;

- o'qituvchilarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

- pedagogik kadrlar uchun kasbiy standartlar asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirishga hamda o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishga ko'maklashish;

- professional ta'lim muassasalari rahbar xodimlari va pedagogik xodimlarni ilmiy loyihalarda ishtirok etish va ilmiy maqolalar yozishga jalb etish;

- 5 muhim tashabbus doirasida fan, sport, badiiy havaskorlik, kitobxonlik, AKT sohasidagi to'garaklar va sport seksiyalari faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish, turli ko'rik tanlovlar, intellektual o'yinlar, yozuvchi va shoirlar, adiblar bilan uchrashuvlar tashkil etilishiga ko'maklashish [4,7-8].

2. Doktorantlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar:

- ilmiy ishi doirasida professional ta'lim muassasasida ilmiy tadqiqot va tajriba sinov amaliyotlarini olib borish;

- ta'lim muassasasida soatbay o'qituvchi asosida dars berish;

- o'quvchilarga kasb sirlarini o'rgatish va ularga ilmiy izlanishlarni olib borish bo'yicha motivatsiyalar berish;

- o'quvchilar bilan davra suhbatlari, tadbirlar va seminarlar tashkil etish;

- ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan foydalangan holda shaxsiy tajribasini oshirish;

- o'quvchilarni o'z ustida ishlash, umumiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirib borishga ko'maklashish [4, 7-8].

Bugungi kunda yurtimizda nafaqat oliy ta'lim balki professional ta'limni rivojlantirishda qilinayotgani tahsinga loyiq. Bunda professional ta'limni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari tajribasidan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oliy va professional ta'lim muassasalarining hamkorligini rivojlantirish va oliy ta'lim professor-o'qituvchilari mehnat va ilmiy tajribasidan foydalanish orqali professional ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining metodik va ilmiy faoliyatini yaxshilash optimal yechimlardan biri hisoblanadi. Oliy va professional ta'lim muassasalari hamkorligining yana bir ustuvor jihati doktorantlar faoliyatini ham samarali tashkil etishda namoyon bo'ladi. Bunda doktorantlarning ilmiy tadqiqot ishlarini professional ta'lim muassasalarida tashkil etish, ularning ilmiy faoliyati va ishlaridan professional ta'lim muassasalari talabalariga motivatsion omil bo'lishi va bevosita mehnat jarayonida doktorantlarning ishtirok etishi ularda ham ish ko'nikmasi va tajribalarining oshishiga zamin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-avgustdagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5241-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirining 2023-yil 6-martdagi "Professional ta'lim muassasalarini metodik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 44-sonli buyrug'i.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 213-sonli qarori.

4. Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2023-yil 16-mart sanasidagi 01-55-sonli buyrug'i.

5. Zulxaydarov, J.A. (2023). Pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvini bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati. Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy. Problems and Solutions, 4(1), 380-384.

6. Zulxaydarov J.A. (2023). Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini pedagogik ta'lim klasteri sharoitida shakllantirish. Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy. Problems and Solutions, 4(1), 374-379.

7. Abdunabiyev B. A. // Form, methods and tools of developing a healthy lifestyle of 8-9 class students // Web of teachers : Inderscience research Volume 1, Issue 6, September 2023. 29-32bb.

8. Караев В.Ш // жисмоний тарбия ўқитувчиларида касбий компетентликни ривожлантиришнинг назарий-педагогик асосларини такомиллаштириш // педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Чирчиқ-2022.146 bet.



CHARACTERISTICS OF THE TEACHER'S INNOVATIVE COMPETENCE IN TERMS OF CONTENT AND STRUCTURE

Guzal Khujaniyazova,

Urgench branch of Tashkent university of
Information technologies named after
Muhammad Al –Khwarizmi,
senior lecturer of “Social studies” department

Annotation

The article presents and theoretically justifies the conditions for the successful formation of professional communicative foreign language competence in higher education. The author also describes the stages and the course of experimental activities to identify the effectiveness of the implementation of the identified conditions. The results of testing the chosen technology of learning demonstrate positive developments in the formation of motivation, knowledge, skills and abilities of practical use of a foreign language.

Keywords: competence-based approach, professional training, foreign language, communicative competence, communicative foreign language competence, teaching method, practical use of a foreign language.

Annotatsiya

Maqolada oliy o'quv yurtlarida professional kommunikativ chet tili kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirish shartlari keltirilgan va nazariy asoslab berilgan. Muallif, shuningdek, belgilangan shartlarni amalga oshirish samaradorligini aniqlash bo'yicha eksperimental faoliyatning bosqichlari va borishini tavsiflaydi. Tanlangan ta'lim texnologiyasini sinovdan o'tkazish natijalari chet tilidan amaliy foydalanish motivatsiyasi, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, chet tili, kommunikativ kompetentsiya, kommunikativ chet tili kompetensiyasi, o'qitish usuli, chet tilidan amaliy foydalanish.

Аннотация

В статье представлены и теоретически обоснованы условия успешного формирования профессиональной коммуникативной иноязычной компетенции в высшей школе. Также автор описывает этапы и ход экспериментальных мероприятий по выявлению эффективности реализации выявленных условий. Результаты апробации выбранной технологии обучения демонстрируют положительные сдвиги в формировании мотивации, знаний, умений и навыков практического использования иностранного языка.

Ключевые слова: компетентностный подход, профессиональная подготовка, иностранный язык, коммуникативная компетентность, коммуникативная иноязычная компетенция, методика обучения, практическое использование иностранного языка.

The creative competence of the teacher, as the most relevant and promising professional and personal education in the framework of the professional competence of a modern teacher, attracts our attention as one of the most efficient resources for enhancing the quality of education at the school. In the framework of a new educational paradigm, we place particular emphasis on the teacher's innovative ability as a prerequisite for the effective structuring of the educational process [1]. According to the federal state educational standards (FSSES), the primary objective

of pedagogical activity is “developing circumstances for the formation and development of each student as a moral, competent person through educational activities.”

Today's school needs a new kind of teacher who has many skills. This teacher can organize work, motivate students, think carefully about their own teaching, do research on their own, and use that research to get better at teaching. Based on what was said earlier and the main issue, which is currently important, the question that comes up is: Do teachers have a range of different skills, both as